

QURILISH PUDRATI SHARTNOMASIDA TARAFLARNING SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLARI

Merganova Nasiba Omon qizi

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik Fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : *Mazkur maqolada bugungi kunda qurilish shartnomasini amaliyotda qo'llash doirasi kengayib borayotganligi sababli shartnomani tuzish tartibi bo'yicha so'z boradi . Shuningdek , loyiha hujjatlari taraflarning huquq va majburiyatlari pudratchi va buyurtmachining javobgarligini qo'llash asosida tahlil qilinadi .*

Kalit so'zlar : *Qurilish pudrati shartnomasi , pudratchi , yordamchi pudratchi , buyurtmachi , loyiha-smeta hujjatlari , taraflarning huquq va majburiyatlari , shartnoma bo'yicha javobgarlik .*

Pudrat tizimida qurilish pudrati shartnomasi muhim o'rinni tutadi . Ayniqsa bugungi rivojlanib borayotgan kunda yangi binolarning qurilayotganligi qurilish pudrati shartnomasini amaliyotda qo'llash doirasini kengayishiga olib kelyapti . Shu sababli ham kelgusida shartnoma taraflari o'rtasida nizo kelib chiqqanida uni to'g'ri hal qilish uchun shartnomani to'g'ri tuzilganligi muhim hisoblanadi .

Buyurtmachi bilan bosh pudratchi qurilishning barcha hajmi yuzasidan umumiy pudrat shartnomasi tuzadilar va o'zaro imzo qo'yib tasdiqlangan shartnoma uning taraflari uchun tegishli huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi . Tomonlarning qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarini ko'rib chiqamiz .

Fuqarolik kodeksining 631-moddasiga ko'ra , bosh pudratchi shartnomada ko'rsatilgan barcha qurilish ishlarini bajarish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi . Ba'zi hollarda qurilish ishlari bir yildan oshiq muddatga cho'zilishi mumkin va bu muddat ichida qurib bitkazilmagan yoki buyurtmachiga topshirilmagan obekt shikastlanishi mumkin . Xo'sh , bunday vaziyatlarda obektga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik kimning bo'ynida bo'ladi . Tomonlardan qay biri uning xavfsizligini ta'minlab beradi ?

Bunday vaziyatlarda pudratchi qurilish ishlari sug'urtasini amalga oshirishga litsenziysi bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'z hisobidan sug'urta shartnomasini tuzishlari mumkin . Pudrat obektining tasodifan nobud bo'lishi yokida shikastlanishi xavfi pudratchining zimmasida bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak , qurilish obektini sug'urtalashdan pudratchi ham yetarlicha manfaatdor bo'ladi . Buni muammoli vaziyatni ko'rib chiqish bilan tahlil qilsak .

MUAMMOLI VAZIYAT

“ Eldor “ xususiy qurilish firmasi bilan “ E'zoz “ buyurtmachi tashkilot o'rtasida qurilish pudrati shartnomasi tuzildi . Ushbu shartnomaning 3- bandiga ko'ra go'zallik saloni binosini qurishga kelishilgan . Shartnomaning 4.2 bandida nazarda tutilgan ob'ektni pudratchi o'z hisobidan sug'urtalashi sharti belgilangan . Biroq pudratchi ushbu shartnomaviy majburiyatni bajarmadi . Qurilish tugallanmasdan sug'urta hodisasi yuz berdi . “ E'zoz “

buyurtmachi tashkilot pudratchi o'z sug'urtalashga oid majburiyatini bajarmaganligi uchun xo'jalik sudiga shikoyat bilan murojaat qildi .

Mazkur vaziyatga huquqiy baho bering . Bunday holda sud qanday qaror qabul qilishi lozim .

Ushbu vaziyatda “ E'zoz “ buyurtmachi tashkilotining arizasi qanoatlantiriladi . Ya'ni Fuqarolik kodeksining 667-moddasida belgilanishicha obekt buyurtmachi qabul qilib olgunicha uning tasodifan shikastlanish va nobud bo'lish xavfi pudratchi zimmasida bo'ladi . Pudratchi qurilish ishlarini olib borar ekan obektning shikastlanish xavfiga qarshi sug'urta shartnomasini tuzishi kerak edi . FKning 669-moddasining 1-qismida ko'rsatilishicha , “ agar shartnomada taraflar boshqacha tartib va shartlarni belgilab qo'ygan bo'lmasalar , shartnomada nazarda tutilgan ob'ektni yoki ishlar majmuini pudratchi o'z hisobidan sug'urtalashi shart “ .

Buyurtmachining ham bir nechta majburiyatlari bo'lib , bulardan birini ya'ni materiallarni yetkazib berish majburiyatini ko'rib chiqamiz . Buyurtmachi bergan materiallar yoki uskunalardan bajarilayotgan ishlar sifatini yomonlashtirmagan holda foydalanish mumkin emasligi aniqlangan va buyurtmachi ularni almashtirishdan bosh tortgan taqdirda , pudratchi qurilish pudrati shartnomasidan voz kechishga va buyurtmachidan ishning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda shartnoma narxini to'lshni talab qilishga haqli . Bundan ko'rindiki qurilish obekti ko'ngildagidek bo'lishi uchun buyurtmachi ham pudratchi qatorida bir xil majburiyatlarga amal qilishi kerak bo'ladi .

XULOSA: Shartnomada barcha shartlar kelishilib , aniq qilib belgilanishi zarur . Bu holat taraflar o'zaro tuzilgan shartnoma shartlariga qat'iy amal qilishini zaruriyat qilib qo'yadi . Bu esa o'z navbatida , taraflarning qurilish shartnomasi bo'yicha shartnoma intizomiga rioya qilishlikning muhim omili bo'lib hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T;2023
- 2.Fuqarolik kodeksiga sharh. 2-jild.
- 3.Fuqarolik huquqi ikkinchi qism . H.Raxmonqulov va boshqalar . Adolat nashriyoti, 1999 yilB. 220-310.